

1-TOM, 12 - SON

Bank kartalaridan foydalanish bilan bog'liq firibgarlik jinoyatlarini tergov qilishda maxsus bilimlardan foydalanish

Amirxon Nosirov Bahodir o'g'li

Toshkent davlat yuridik universiteti

**“Jinoyat qonunchiligini qo'llash nazariyasi va amaliyoti” soha mutaxassisligi
magistri**

ANNOTATSIYA

Ushbu tezisda bank kartalaridan foydalanish bilan bog'liq firibgarlik jinoyatlarini tergov qilishda maxsus bilimlardan foydalanish usullari bayon etilgan. Unda bank kartalaridan foydalanish bilan bog'liq firibgarlik jinoyatida maxsus bilimlardan foydalanish, tergov organlari tomonidan olib boriladigan tergov harakatlari, ekspertiza tayinlash va o'tkazish usullari yoritilgan.

Kalit so'zlar: kompyuter-texnik ekspertiza, kriminalistik-texnik ekspertiza, raqamli dalillar, jinoyat izlari, zararli dasturlar.

Jinoyatni tergov qilish jarayonida tergovchi bevosita tergov harakatlarini o'tkazishda maxsus bilimlardan foydalanish uchun mutaxassis, ekspertni jalb etadi va uning ishtirokida o'z faoliyatini amalga oshiradi yoki ekspertiza tayinlaydi. Maxsus bilimning bunday shakllarda qo'llanilishi O'zbekiston Respublikasi Jinoyat protsessual kodeksi va O'zbekiston Respublikasi “Sud ekspertizasi to'g'risida”gi qonuni bilan tartibga solingan. Tergov harakatlarini tashkil qilish va o'tkazishda tergovchi maxsus bilimga ega bo'lgan mutaxassisni taklif etib, uning yordami, maslahati asosida ma'lum tadbirlarni amalga oshiradi: ko'zdan kechirish, tintuv o'tkazishda maxsus qidiruv asboblari qo'llash, izlarni qidirish, topish, ko'chirib olish va qayd etish va boshqa masalalar shular jumlasiga kiradi. Ekspertiza tayinlash va o'tkazishda esa maxsus bilim va ko'nikmalarga ega ekspert xodimlari tomonidan qo'llanilib, alohida tergov harakati sifatida tadqiqot o'tkaziladi.

Bank kartalaridan foydalanish bilan bog'liq firibgarlik jinoyatlarini tergov qilish jarayonida, tergov bilan bog'liq bo'lgan muammolarni hal qilish maqsadida maxsus bilimlardan foydalaniladi. Bank kartalaridan foydalanish bilan bog'liq firibgarlik jinoyatlarida asosan ikki turdagi, ya'ni **kompyuter-texnik** va **kriminalistik-**



1-TOM, 12 - SON

texnik ekspertiza o'tkaziladi¹. Ishning o'ziga xos holatlariga qarab, xatshunoslik, daktiloskopik va sud iqtisodiy ekspertizalari ham tayinlanishi mumkin.

Bank kartalaridan foydalanish bilan bog'liq firibgarlik jinoyatlarini tergov qilishda tayinlanishi lozim bo'lgan asosiy ekspertiza turlaridan biri bu kompyuter-texnik ekspertizasi hisoblanadi².

Kompyuter texnik ekspertizasi raqamli qurilmalar va dasturiy ta'minotni tadqiq etish, ularni tergov qilinayotgan jinoyatga aloqador ekanligini aniqlash va o'rganish maqsadida o'tkaziladi. Bugungi kunda yurtimizda ham ushbu ekspertiza turidan foydalanish yo'lga qo'yilgan bo'lib, axborot texnologiyalari sohasidagi jinoyatlarni aniqlashda juda muhim ahamiyatga ega.

Jinoyat sodir etilgan raqamli qurilmani olib qo'yish va to'g'ri rasmiylashtirish tergov jarayoni uchun muhimdir. Ushbu holat dalillarni mustahkamlash va jinoyatni fosh etishda ustivor vazifalardan biri hisoblanadi. Jinoyat quroli bo'lmish raqamli qurilma aniqlanganidan so'ng uning tizim bloki bilan ulanganlik holatini suratga olib rasmiylashtirib qo'yish lozim. A.L.Osipenkoning ta'kidlashicha, internet tarmoqlarida sodir etilgan jinoyatlarning o'ziga xosligi, ularni isbotlash jarayonida namoyon bo'lib holat bo'yicha ma'lumotlarni o'z vaqtida rasmiylashtirmaslik natijasida boshqa odatdagi isbotlash usullari va dalillardan foydalanishga majbur bo'lishga olib keladi³.

Raqamli qurilma va dasturiy ta'minot vositalaridan foydalangan holda jinoyat sodir eishni tergov qilishning yana bir o'ziga xos jixati bu, virtual va raqamli dalillardan foydalanish natijasida jinoyat ishini yuritishda ayblovni o'zgartirish kabi holatlari yuz berishidir. Masalan, ayblanuvchiga nisbatdan O'zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksining 168-moddasi bilan jinoyat ishi qo'zg'atilib, tergov davomida unga O'zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksining 278²-moddasi ya'ni, (Kompyuter axborotidan qonunga xilof ravishda (ruxsatsiz) foydalanish) yoki 278⁶-moddasi ya'ni, (Zarar keltiruvchi dasturlarni yaratish, ishlatish yoki tarqatish) bilan to'ldirilishi mumkin.

Kompyuter-texnik ekspertizasida tintuv paytida olib qo'yilgan uskunalari ya'ni, kompyuter, noutbuk, fleshka kabi tashuvchi qurilmalarni tadqiq etishda ekspert oldiga qo'yiladigan savollar:

¹ Мещерякова А. А. Особенности расследования преступлений, совершаемых с использованием пластиковых карт //Вестник криминалистики. -2010. -№ 4. - С. 86

² Филиппов М. Н. Особенности расследования краж и мошенничеств, совершенных с использованием банковских карт и их реквизитов: монография / -М. С. 125

³ Осипенко А.Л. Борьба с преступностью в глобальных компьютерных сетях: (Международный опыт): Монография.- М., 2004.



1-TOM, 12 - SON

- 1) taqdim etilgan axborot tashuvchisida bank kartalarini ishlab chiqarish, ularning rekvizitlaridan foydalanish bilan bog'liq ma'lumotlar mavjudmi?
- 2) dasturiy ta'minot bank kartalarini ishlab chiqarish uchun mo'ljallanganmi yoki ilgari taqdim etilgan kompyuterda o'rnatilganmi?
- 3) taqdim etilgan kompyuterda kompyuter ma'lumotlariga noqonuniy kirish imkonini beruvchi dasturiy ta'minot o'rnatilganmi?
- 4) ushbu kompyuter orqali yozishmalar olib borilganmi, qanday dasturlar yordamida, uning mazmuni qanday?

Shunday qilib, bank kartalaridan foydalanish bilan bog'liq firibgarlik jinoyatlarini sodir etilganligini tekshirish jarayonida kompyuter va noutbuklarning tizim bloklariga kompyuter-texnik ekspertiza tayinlandi.

Kompyuter-texnik ekspertiza obektiga soxta bank kartalarini tayyorlash uchun mo'ljallangan maxsus jihozlar noutbuk, embosser, matn terish mashinasi, kodlovchi va boshqalar qurilmalar ham kirishi mumkin. Ushbu vaziyatda ekspert oldiga quydagi savollarni qo'yish mumkin:

- 1) taqdim etilgan obyektlarning imkoniyatlari qanday?
- 2) ushbu obyektlar bitta to'plamni ifodalaydimi?
- 3) ushbu qurilmalarni ishlab chiqarish usuli qanday?
- 4) taqdim etilgan obyektlarda qanday axborotlar saqlangan?

Ushbu jinoyatlarni aniqlashda xatshunoslik ekspertizasi ham tayinlanishi mumkin bo'lib, karta egasining imzosi bo'lgan bank kartalari, tovarlar, xizmatlar uchun to'lovni amalga oshirishda berilgan sliplar, cheklar, bank kartalarini chiqarish va olish uchun ariza shakllari, soxta shaxsni tasdiqlovchi hujjatlarni aniqlashda tergov organlariga qo'l keladi⁴.

Olib qo'yilgan bank kartalari, shuningdek, kartalar tayyorlangan materiallarga ko'ra, materiallar va moddalarga ekspertizasi tayinlanishi mumkin. Ushbu plastik kartalarni ishlab chiqarishda ishlatilgan plastmassa va bo'yoqlarning tarkibi bilan bog'liq savollarga javob berishga yordam beradi. O'z navbatida ushbu ekspertiza, tegishli mahsulotni sotib olish, ishlab chiqarish va sotish bilan shug'ullanadigan firmalarni va natijada ushbu mahsulotlarni xaridorlarini aniqlashga yordam berishi mumkin⁵.

⁴ Волкова Г. П., Махова И. В., Чистова Л. Е. и др. Расследование отдельных видов мошенничества: учебное пособие. С.64

⁵ Филиппов М. Н. Особенности расследования краж и мошенничеств, совершенных с использованием банковских карт и их реквизитов: монография / -М. С. 124



1-TOM, 12 - SON

Bu turdagi jinoyatlarni fosh etishda muhim bo'lgan ekspertiza turlaridan yana biri bu hujjatlarni texnik-ekspertizasi bo'lib, hujjatlar haqiqiyligiga shubha tug'ilgan hollarda amalga oshiriladi. Kriminalistik-texnik ekspertizasi turli usulda yasalgan hujjatning qalbakiligini, dastlabki holatini, keyinchalik qanday o'zgartirishlar kiritilganligini muhr va shtamplarini asl yoki qalbakiligini, ularning yasash usulini, yozuv vositalarini, hujjatlar materialini aniqlash uchun tayinlanadi.

Kriminalistik texnik tekshiruvining obyektlariga quydagilar kiradi:

- turli hujjatlardagi tadqiqot qilinuvchi rekvizitlar (matn, imzo, pul-to'lov hujjatlari, qimmatbaho ashyoviy boyliklarni olish-sotish kabi harakatlarni ifodalovchi hujjatlar, shaxsiy hujjatlar, ma'lumotnomalar va boshqalar);
- pul-to'lov hujjatlari, naqd pul kirimi va to'lovi bo'yicha turli operatsiyalarni aks ettiruvchi chek daftarchasi, kirim-chiqim orderlari, kassa daftarchasi, to'lov hujjatlari, turli kvitansiyalar, deponent kartochkalari.

Bank kartalaridan foydalanish bilan bog'liq firibgarlik jinoyatida jinoyat izlari serverlarda, tarmoqda, jinoyat sodir etgan shaxs va jabrlanuvchilarning kompyuterlari yoxud boshqa texnik qurilmalarida saqlanib qolishi mumkin. Ushbu izlarni tiklashda ekspertlar "EnCase", "FTK", "Pasco" kabi dasturlardan foydalanishadi⁶. Ammo, tezkor qidiruv xodimlari tomonidan olib borilgan tezkor tadbirlarda va tergov harakatlarida har doim ham ko'zlangan maqsadga erishilmaydi. Buning sababi, jinoyatchilar aksariyat hollarda jinoyat izlarini o'chirib yuboruvchi dasturlardan, boshqa shaxslarning nomiga olingan abonent raqamlaridan, jinoyatga umuman aloqasi bo'lmagan shaxslarning bank kartalari hamda hisob raqamlaridan yoxud elektron hamyonlardan foydalanishadi. Shu usul orqali huquqni muhofaza qiluvchi organlarni chalg'itishga urinishadi.

Jinoyatning issiq izidan borishda tergov va tezkor qidiruv xodimlari shaxsga doir ma'lumotlarni to'plash maqsadida aloqa kompaniyalariga, bank yoki elektron to'lov tizimlari operatorlariga so'rov jo'natishadi. Aloqa operatorlari shaxsni ro'yxatdan o'tgan sim kartalari, IMEI – raqamlari, kiruvchi va chiquvchi qo'ng'iroqlar sms xabarlarini haqidagi barcha ma'lumotlarni taqdim etishadi.

Shu bilan birga, jinoyatchini ushlabda bank tomonidan taqdim etilgan ma'lumotlar ham muhim ahamiyat kasb etadi. Ushbu ma'lumotlarga banklar tomonidan taqdim etiladigan shaxsga doir ma'lumotlar, pul ko'chirish bilan bog'liq

⁶ И.А. Калмыков, В.С. Пелешенко. Компьютерная криминалистика - Ставрополь: СКФУ, 2017, - 84 с.



1-TOM, 12 - SON

moliyaviy operatsiyalar, onlayn bank ma'lumotlari, valyuta konvertatsiyasi va boshqa ma'lumotlar kiradi⁷.

Bank kartalari bilan bog'liq firibgarlik jinoyatlarida hodisa sodir etilgan joyni aniqlash masalasi boshqa jinoyatlarga qaraganda ancha mushkul hisoblanadi. Sababi, bu toifadagi jinoyatlarda jinoyatchi asosan boshqa davlatdan turib jinoyatni sodir etadi. Ko'p hollarda jinoyatchilar pullarni boshqa pul birligiga konvertatsiya qilib, bir davlat hududidan boshqa davlat hududiga o'tkazib yuborishadi va bu holat ishni yanada chigallashtirib, yurisdiksiya, ekstraditsiya bilan bog'liq muammolarni keltirib chiqaradi.

Shuni ta'kidlash lozimki, bank kartalarini texnik-ekspertizadan o'tkazish uchun bank kartasidan tashqari taqqoslash uchun namuna taqdim etish talab etiladi. Ekspertiza amaliyoti davomida kompyuterlashtirish va ilmiy texnik rivojlanish munosabati bilan hujjatlarni texnika usulida olib boriladigan tekshiruvlari yangi mukammal asbob uskunalar yordamida o'tkazilmoqda. Jumladan, hujjatlarni tekshirishga moslangan **DVS-Portable** videoskaneri, **"VSK-2000"** videospektral komporatori rangsiz yozuvlarning botiq izlari asosida tiklash uchun mo'ljallangan. **"ESDA"** apparati, **"Leika DMK"** mikroskopi, **"Foram-685"** Romanovskiye spektrografi, **"KYM-2000"** ixcham vidomikroskopi va boshqalar ishlatilmoqda. Hujjatlarni texnikaviy usulda tekshirish sohasida mo'ljallangan yangi zamonaviy asboblardan yana biri Angliyaning **"Foster & Fresman"** kompaniyasi ishlab chiqqan **"VSK-2000"** videospektral apparatidir.

Xulosa qilib aytganda, bank kartalaridan foydalanish bilan bog'liq firibgarlik jinoyatini tergov qilishda hodisa sodir etilgan joyni aniqlash, jinoyatlarni fosh etishda tergov organlari o'rtasida xalqaro miqyosda tezkor axborot almashinuvini masalalarini hamda ushbu jinoyatlarda yurisdiksiya, ekstraditsiya bilan bog'liq muammolarni hal etish yo'llarini tubdan takomillashtirish lozim. Qonunchilikdagi islohotlar, xalqaro hamkorlik, rivojlangan raqamli sud ekspertizasi, aholining xabardorligini oshirish va texnologik innovatsiyalar bularning barchasi yangi davrda raqamli kriminalistikani rivojlantirishning muhim istiqbolidir. Ushbu imkoniyatlardan foydalanish va raqamli texnologiyalar bilan bog'liq bo'lgan jinoyatchilik muammolarni faol hal qilish orqali huquq tizimimizni doimo takomillashtirib borayotgan texnologiya asrida adolat va xavfsizlikni ta'minlash barchamizning burchimizdir.

⁷ Lavrushkina A. A. Tipichnie sledstvennie deystviya v ramkax metodiki rassledovaniya moshennichestva s ispolzovaniem seti Internet i sredstv mobilnoy svyazi [Typical investigative actions within the methodology for investigating fraud using the Internet and mobile communications] Byulleten nauki i praktiki. 2018. T. 4. №4. S. 447-451. Rejim dostupa: <http://www.bulletennauki.com/lavrushkina-a> (data obrasheniya 15.04.2018).



1-TOM, 12 - SON

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR (REFERENCES)

1. Мещерякова А. А. Особенности расследования преступлений, совершаемых с использованием пластиковых карт //Вестник криминалистики. - 2010. -№ 4. - С. 86
2. Филиппов М. Н. Особенности расследования краж и мошенничеств, совершенных с использованием банковских карт и их реквизитов: монография / - М. С. 125
3. Осипенко А.Л. Борьба с преступностью в глобальных компьютерных сетях: (Международный опыт): Монография.- М., 2004.
4. Волкова Г. П., Махова И. В., Чистова Л. Е. и др. Расследование отдельных видов мошенничества: учебное пособие. С.64
5. Филиппов М. Н. Особенности расследования краж и мошенничеств, совершенных с использованием банковских карт и их реквизитов: монография / -М. С. 124
6. И.А. Калмыков, В.С Пелешенко. Компьютерная криминалистика - Ставрополь: СКФУ, 2017, - 84 с.
7. Лаврушкина А. А. Типичные следственные действия в рамках методики расследования мошенничества с использованием сети Интернет и средств мобильной связи

